

Usmon Nosir she'rlarida tabiat tasviri

Amirov Farrux Shuhrat o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-bisqich talabasi

Annotatsiya: maqolada o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan shoir Usmon Nosir she'riyatida tabiat tasvirining o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritildi. Usmon Nosir she'rlaridagi ruhning tabiat bilan chambarchasligi tahlil qilindi. Shu bilan bir qatorda, tasvirdagi badiiy topilmalar tilga olindi.

Kalit so'z va iboralar: tabiat tasviri, badiiy san'at, badiiy topilma, shoir lirikasi, badiiy uslub, badiiy qahramon.

Usmon Nosir o'zbek she'riyatining zabardast vakillaridan biri bo'lib, o'zining qisqa – 32 yillik umrini “adabiyot” atalmish so'z va ruh mavosiga bag'ishlagan ijodkordir. Uning nomi yigirmanchi yillarning oxirlaridayoq o'quvchiga tanila boshlagan. O'ttizinchi yillarda esa, Usmon Nosirning asarlari kitobxonlar tomonida intiqlik bilan kutiladigan bo'ladi. Uni “tabiatan shoir”, “tug‘ma shoir” kabi ta’riflar bilan olqishlashadi. Usmon Nosir 18 yoshidan to 24 yoshigacha bo'lgan davrdagina ijod qiladi. Shu qisqa 6–7 yil ichida u beshta she'rlar to'plami (“Quyosh bilan suhbat”, “Safarbar satrlar”, “Traktorobod”, “Yurak”, “Mehrim”) va ikki doston (“Norbo‘ta”, “Naxshon”) hamda to'rt drama (“Atlas”, “Zafar”, “So‘nggi kun”, “Dushman” asarlarini) yaratadi. Shuningdek tarjima sohasida ham samarali ijod qiladi. N.A.Dobrolyubovning “Haqiqiy kun qachon keladi?” degan mashhur asarini, V.I.Kirshonning “Ulug‘ kun” dramasini, A.S.Pushkinning “Bog‘chasarov fontani”, M.Yu.Lermontovning “Iblis” nomli dostonlarini, Geyne, Gyote, Bayron ijodidan bir qator namunalarni mahorat bilan o'zbek kitobxonlariga yetkazadi.

Usmon Nosir she'riyatida tabiat tasviri alohida ahamiyatga ega. U o'z ruhiy kechinmalarini tabiat orqali she'rxonga yetkazib beradi. Uning deyarli barcha asarlarida tabiat bilan chambarchas bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin. Usmon Nosir hayotining eng gullagan davri chigal va sermashaqqat o'tgani, uning lirikasida hayotga muhabbat, go'zallikka oshuftalik hamda isyonkorlik ruhi shakillanishiga turtki bo'ldi. O'z so'zi, o'z uslubiga ega bo'lgan shoir Usmon Nosir tabiat xusnini o'z ovozida kuyladi.

Boraman, oqarib yotadi yo'llar.

Yam-yashil dalalar – sohilsiz dengiz,
Ko‘zimga ilinmas ufqning cheti.

Zangori barglarning to‘lqini ichra
Oftobga telmurar napormon gullar...
To‘ymayman, o, kenglik! O, chaman diyor!

Har bir manzara Usmon Nosir nigohida go‘zal bir she’rga aylanadi. Uning ichki ohangi satrlarga quymalik xususiyatini bag‘ishlaydi. Barcha ijodkorlar, alqissa Usmon Nosir uchun ham tabiat ko‘p hollarda ilhom manbai bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Usmon Nosirning “Bodom gullagan kechasi”, “Tiflis oqshomi..”, “Dengizga”, “Bog‘im” singari bir qator she’rlariga ushbu fikrning tasdig‘i sifatida qarash mumkin. Uning “Yur tog‘larga chiqaylik” jumlesi bilan boshlanuvchi she’rida ham manzaralar tasviri yuksak did va maxorat bilan yozilgan:

Yur tog‘larga chiqaylik.
Mayli, yur!
Eh... qandayin chiroylit
Oppoq nur...

Olmos kabi oppoq qor
Yaltirar.
Nega muncha dil oqar,
Qaltirar?

Usmon Nosir tabiatni badiiy san’atlar, xususan: istiyor, tashbeh va tashxis san’atlari yordamida go‘zal va sodda topilmar bilan tasvirlaydi. Bu kitobxonga o‘z tuyg‘ularini aniq, ravshan yetkazib berish va satrlarning yasama bo‘lmasligida yetakchi ro‘l o‘ynagan.

Shafaq – uzun, qizil lenta
Dengiz chetida.
Shovullab shabada yelar
To‘lqin betida.

VOLUME-2, ISSUE-9

“Senga, singlim” she’rida ham tabiat tasviridagi ajoyib badiiy topilmalar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoirning yozishi bo‘yicha ukasi Ravzaxonga bag‘ishlangan ushbu she’rda tashxis(arabcha – shaxslantirish) san’ati yetakchi ahamiyat kasb etadi:

Ko‘chalarda quyosh bayram etar,
Yel orkestr o‘ynaydi xursand.
Bilasanmi, bu to‘p qayga ketar?
Qolma! Orqasidan Yugur san!

Shuningdek insoniy tuyg‘ularining qaysidir ma’noda tabiat hodisalari bilan o‘xshashligini Usmon Nosir she’rlarida ko‘rishimiz va anglashimiz mumkin. Xususan u yulduzning barg kabi uchishida ayriliqni ko‘radi:

Uchdi yulduz barg kabi,
Qarab qolding sen.
Men ketarkan, “xat yoz” deb
So‘rab qolding sen.

Usmon Nosirning “Bolaligimga” she’rida badiiy qahramon o‘z olaligiga bo‘lgan sog‘inchini to‘rt qatorga juda go‘zal va ta’sirli qilib jamlay olgan. Bolalik onlari ijodkorning ko‘zi oldida tabiatning bir qismi o‘larоq gavdalanadi:

Kapalakning gul emganin ko‘rdim,
Eslab ketdim seni, malagim...
Sen berdingmi, shuncha shirin she’rni,
Ey, barglari ko‘m-ko‘k palagim?

Go‘zallikni ko‘ra bilish, uni his eta olish uchun go‘zal qalb lozim. Uni qalamga olish bu maxoratdir. Usmon Nosir ta’rif uchun so‘zlar tanqislik qiluvchi tabiat atalmish mo‘jizani satrlarda aks ettira maxoratlil adib. “U shunday to‘palon va to‘lqin bilan keldiki, uncha-muncha she’riy uslub va ijodni to‘s-to‘s qilib yubordi. Uni o‘zimizda “O‘zbekning Lermontovi”, Moskva gazetalarida “Sharqda Pushkin paydo bo‘ldi”, deb yozishdi”, - deya Usmon Nosirga O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Turob To‘la ta’rif beradi.

VOLUME-2, ISSUE-9

Shoirning she'riy kechinmalaridandan dilga, ko'ngildan ko'ngilga yetib borishining yana bir sabibi, tilining soddaligi hamda satrlarning tozaligidadir. Usmon Nosir qaysi janrda ijod qilmasin yuqoridagi xususiyatlarni o'zida saqlab qola bilgan va so'z san'atiga o'zgacha nigoh bilan qaray olgan. Uning she'riyatidagi tabiat tasvirlari asarlarining yanada badiiy qiymatining oshishiga sabab bo'lgan deya ishonch bilan aytishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Usmon Nosir. Yur tog'larga chiqaylik.-T.: O'zbekiston LKSM Markaziy Komiteti "Yosh gvardiya" nashriyoti, 1984. – B.32.
2. Adabiyot, ikkinchi qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf uchun darslik-majmua.-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. – B.26.
3. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar.-T.:O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959. - B.42.
4. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar.-T.:O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959. - B.44.
5. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar.-T.:O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959. - B.46.
6. Xurshid Serobov. Usmon Nosir.-T.: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2022. – B.24.
7. Usmon Nosir. Ertani sevinib kut!-T.: "Adabiyot" nashriyoti, 2021. – B.25.
8. Usmon Nosir. Ertani sevinib kut!-T.: "Adabiyot" nashriyoti, 2021. – B.38.